



TURKISTONDA XX ASR BOSHLARIDA JADIDLARNING FAOLIYATI

Saidov Zafar Mamarajabovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo

akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

93-792-74-71

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadidlar tomonidan amalga oshirilgan islohotlar dasturida xayriya muassasalari hamda tashkilotlarining tuzilishi va ularga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. XX asr boshida Turkistonda sodir bo'lgan voqea-xodisalar va unda jadidlarning o'rni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *jadid, xayriya, muxtoriyat, ziyoli, maktab, tashkilot, muassasa, inqilob, ma'rifat, siyosiy harakat.*

Abstract. *This article analyzes the structure and information related to charitable institutions and organizations in the reform program carried out by the Jadids. The events in Turkestan at the beginning of the 20th century and the role of the Jadids in them are covered.*

Key words: *jadids, charity, autonomy, intellectuals, school, organization, institution, revolution, enlightenment, political movement.*

Jadidlar faoliyatida milliy g'oya va mafkura alohida o'rin egallab, ular davlat qurilishidan tortib, jamiyat va uning ma'naviy hayotigacha bo'lgan masalalarni qamrab olgan edilar. Ular faoliyati mobaynida xalqni ma'rifatli qilish hamda bu orqali Turkistonni mustaqillikka erishuviga erishishni maqsad qilib oldilar.

Jadidlar orasida dunyo kezgan yetuk olimlar, madaniyat arboblari yetishib chiqib yurt ozodligi yo'lida fidoiylarcha kurashdilar. Ular o'z dasturida 4 ta: 1} Yangi usul maktablarini ko'paytirish; 2} Qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o'qishga



yuborish, 3} Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish; 4} Gazeta va jurnallar chop qilish kabi xayrli ishlarni amalga oshirishni belgilab olgan edilar [4; 12].

Jadidchilar asosiy g'oya va maqsadlari sifatida o'lkani diniy xurofot va qoloqlikdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, o'lkani muxtoriyatga yetaklash, milliy pul birligi va qo'shinni tuzish belgilangan edi.

Jadidlar turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish masalasida siyosiy tashkilotlar bilan bir qatorda iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy sohalarni qamrab olgan xayriya jamiyatlariga asos solishga hamda mahalliy boylar, ziyolilar, metsenatlar tomonidan ularga homiyliklar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratganlar.

Tadqiqotlarga ko'ra jadidlar tomonidan tashkil etilgan jamiyatlar, shirkat, tashkilotlar va uyushmalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

“Shirkati Buxoroi Sharif” (1909 y. mart)

“Jamiyati xayriya” (1909-y. 12-may) – Toshkentda tashkil etilib, 41 moddalik Nizomga ega bo'lgan. Uning a'zolari sifatida Toshhoji Tuyuqboyev, Nizomqori Mulla Hasanov, Abdulla Avloniy, Munavvar sori, Bashrilla Asadullaxo'jayevlar hisoblangan.

“Tarbiyai atfol” (1910-y. 2-dekabr) – Buxoroda tashkil etilgan. Yoshlarni xorijga o'qishga jo'natishda moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlagan. Yoshlar Germaniya (Olmoniya), Turkiya (Istanbul) va hududlarga ta'lim olish uchun yuborilgan. Mudarris Hoji Rafi', Usmon Xo'ja, Abduvoxid Mirzo, Hamidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Mahdum va boshqalar jamiyat a'zolari hisoblangan.

“Turon” shirkati (1913-y.) – Toshkentda tashkil etilgan. A'zolar sifatida Ubaydulla Xo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Munavvar qori Abdurashidxonov, Komilbek Norbekov, Abdulla Avloniy, Muhammadjon Poshshaxo'jayev, Kattaxo'ja Boboxo'jayev, Bashrillaxon Asadillaxo'jayev, Nizomiddin Asomiddinxo'jayev, Karimbek Norbekovlar hisoblangan.



“Nashriyoti Behbudiya” (1913-y.) – Bexbudiyning xususiy nashriyoti bo‘lib, ko‘pgina ma’rifatparvarlarning asarlari tarjima qilinib nashr etilgan. Shuningdek, ilk bor Turkiston xaritasi shu yerda nashr qilingan.

“Kutubxonai Behbudiya” (1913 y.)

“Nashriyot” shirkati (1914-y.) – Toshkentda ochilgan. Ta’rischilari sifatida Abdurahmonov, Sarimsoqov, Abdurashidxonov, Avloniy, Poshshoxo‘jayev, Azizxo‘jayev, Umarxo‘jayev, Xujayorov, Saidkarimboyevlar xisoblangan.

“Maktab” shirkati (Toshkent, 1916 y.)

“Ittihodi taraqqiy”, “Sho‘roi islomiya” (1917-y.) “Muallimlar jamiyati” (1917 yildan so‘ng) – Toshkentda

ochilgan. Munavvar qori tashabbuskorligida milliy maktabni shakllantirish, xalq maorifini rivojlantirish maqsadida tuzilgan.

“Turon” xavaskorlar jamiyati (1917 y.) – Toshkentda Munavvar qori tashabbusi bilan teatr san’atini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan.

Musulmon o‘qituvchilar instituti (1918-y.) – Ibroxim Ismoilov tomonidan Toshkentda ochilgan. Munavvar qori, Fitrat faoliyat yuritgan. Uning tarkibida qisqa kurslar ishlab turgan.

“Birlik”, “Erk”, “Temur”, “Botir gapchilar” yashirin tashkilotlari (1919-y.)

“Turkiston milliy birligi” (1921 y.) [3; 118-119].

Shuningdek, jadidlarning faol taraqqiyparvarlari tomonidan 1909-1920-yillar mobaynida “Umid”, “Zarafshon”, “Barakat”, “G‘ayrat”, “Taraqqiyparvar” kabi ijtimoiy-siyosiy tashkilot va muassasalarga asos solindi. Ular Turkistondagi siyosiy hayotning faollashishi, mustamlakachilik tuzumiga qarshi kayfiyatlarning o‘sib borishi va kuchayishiga zamin yaratdilar. Birinchi jahon urushi (front orti va safarbarlik vaqti)da ularning faoliyati yorqin namoyon bo‘ldi. Ular yuqori tajriba va kuchga ega bo‘lmaganligiga qaramay qarshilik harakatini tarixiy voqealik va milliy manfaatlarga javob beruvchi darajaga ko‘tarishga harakat qilgan edilar [1; 54].



Turkiston jadidlari turli jamiyatlar tashkil etar ekanlar, millatni jipslashtiruvchi, yagona yo‘lga boshlovchi milliy g‘oyani imperiyaning boshqa hududlaridagi musulmonlardan olgan bo‘lsa-da, uni mahalliy aholi turmush tarzi va muhitiga moslagan holda qayta shakllantirgan edilar. Ular dastlabki islohotlarda ta‘lim, zamonaviy bilimlar targ‘ibi va mahalliy aholi turmush sharoitini yaxshilashga oid dasturni qo‘lladilar. Bu esa jadidlarning milliy g‘oyasi asosini tashkil etdi. Bu jarayonda milliy g‘oya asosini belgilagan xayriya muassasalarining to‘laqonli faoliyati amalga oshirilmay qoldi. Bunga bir tarafdin mahalliy sarmoyador, savdogar va ishlab chiqaruvchilar sinfining sustligi, ikkinchi tarafdin qo‘shni hududlar va o‘lkada rus hukumatining olib borgan siyosati to‘sqinlik qildi. Natijada Turkistonda xayriya muassasalarining faoliyati mahalliy jamiyatning turli qatlamlari orasida birdek pog‘onada tayanch topa olmadi.

1917-yil fevralda sodir bo‘lgan xalq inqilobi davrning ulkani hisoblangan Rossiya imperiyasini parchalab tashladi va unga barham berdi. Bu voqea hodisa mustamlaka sifatida hisoblangan Turkistonda ham yuqori kayfiyatda kutib olindi. Natijada, ozodlik va tenglik to‘lqini Turkistonni xam inkilobiy jo‘nbushga keltirdi. O‘lka axolisining ilg‘or kismi sanalgan jadidlar, ulamolar, ziyolilar bu inkilob g‘oyasini xayotga tatbik etishga astoydil bel bog‘ladilar. Ular rus hukumati tarkibida bo‘lsa xam milliy, xukukiy, muxtor davlat qurish uchun astoydil kurashdilar. Oktyabr to‘ntarishidan keyin esa Turkiston xalqlarining mazkur umidi yuqqa chiqarildi.

Turkistonda 1917 yil fevraldan oktyabrgacha davr mobaynida jadidchilik harakati (dastlab ma‘rifatchilik harakati sifatida edi) jiddiy o‘zgarishlarga uchrab, siyosiy harakat darajasida rivojlanib bordi. Xususan, 1917-yil mart oyiga kelib siyosiy ko‘rinishga ega “Sho‘roi Islomiya” (Toshkentda) tashkiloti tuzildi [5; 3]. Unga dastlab milliy-liberal, progressiv harakat jadidlarning hamda ruhoniylarning “Ulamo” jamiyati kiritildi (keyinchalik 1917-iyunda alohida ajralib chiqqan edi).



Qarashlarning turlicha bo‘lganiga qaramay, ularni mustamlaka tuzumiga nisbatan nafrat hamda umumiy ma’naviy qadriyatlar birlashtirib turar edi.

Jadidlar tashabbusi bilan o‘lkada umumqurultoylar (to‘rt bor Butunturkiston musulmonlari qurultoyi) o‘tkazildi. Uchinchi qurultoy davrida (1917-yil 17-20-sentyabr) “Sho‘roi Islomiya”, “Ulamo”, “Turon” va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirish maqsadida umumiy bo‘lgan “Ittifoqi muslimin” siyosiy partiyasini tuzishga qaror qilindi. Keyinchalik, so‘nggi qurultoy natijasida Turkiston Muxtoriyatiga asos solindi (1917 yil 26 noyabr) [2; 132]. Aynan, Turkiston jadidlarining milliy g‘oyasi o‘z amaliy tatbiqini 1917 yil Muxtoriyat tashkil etilishi bilan yakunladi. Muxtoriyat Turkistonning dastlabki va so‘nggi mustaqil siyosiy tuzilmasi sifatida tarixdan o‘rin oldi.

Yuz yildan oshiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da bugungi yangi taraqqiyot davrida amalga oshirilayotgan islohotlarga tayanch bo‘lguvchi tariximizning jadidlar va istiqloлга intilgan shaxslar faoliyati davrini o‘rganilmagan yangi qirralarini o‘rganish va uni oshkor etish muhim hisoblanadi. Bu borada yuqorida ilgari surilgan mavzu doirasida jadidlar tomonidan tashkil etilgan har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muassaslar va jamiyatlar faoliyatini davriy matbuot nashrlari, arxiv manbalari, xotira- esdalik asarlarini o‘rganish maqsadga muvofiq. Shuningdek, jadidlarning Turkiston Muxtoriyati faoliyatidagi o‘rni va o‘zaro munosabatlari tarixini aniqlash muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaev R.M. Natsionalnye politicheskoe organizatsii Turkestana v 1917-1918 gg. Avtoref. diss. doktora ist. nauk. -Tashkent, 1998.
2. A‘zamxo‘jaev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy- demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. -Toshkent, 2000.



3. Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. -Toshkent: Turon-Iqbol, 2010.
4. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). -Toshkent: Universitet, 2002.
5. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar (1917-1935). - Toshkent: O‘zbekiston, 2000.